

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA PIRLS TESTLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Odilova Maxliyoxon

Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: odilovamaxliyo04@gmail.com

Parpiyev O.O.,

Ilmiy rahbar Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish yo'nalishini baholovchi xalqaro dasturi hisoblangan PIRLS – 2021 taqiqot metodi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqoladan siz PIRLS tadqiqotining tarixi, tadqiqot maqsadi, uni amalga oshirish usullari, tashkiliy jarayon, o'quv jarayonining savodxonligi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, hikoya, o'qish ko'nikmasi

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi³³

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958- yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

³³ 1 <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php?id=15772>

25-yanvardagi uchrashuvda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yig'ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog'liq tashkiliy masalalar, ya'ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga qaratilgan yo'riqnomalar va boshqa ko'plab vazifalar atroflicha muhokama qilindi

PIRLS xalqaro tadqiqoti tashkil etilganiga 23 yil bo'ldi va shu kunga qadar har besh yilda ya'ni 2001, 2006, 2011, 2016, 2021- yillarda tashkil etilgan.

PIRLSning ortida mashaqqatli mehnat, ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, o'quv dasturlari va darsliklar, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti, bir so'z bilan aytganda, milliy ta'lim tizimining qanchalik tayyor ekanligi bilan bog'liq masala yotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Matnni o'qish va tushunishga o'quvchilar 1-sinfдан boshlab o'rgatiladi.³⁴

Asosiy

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

O'QISH SAVODXONLIGINING MAQSADI

Badiiy tajriba orttirish

Axborotni olish va undan foydalanish

TUSHUNISH JARAYONI

- Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish
- To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish
- G'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish
- Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish

Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o'quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va

³⁴ PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

Axborot olish va undan foydalanish. Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishonitirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin. Yosh o'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin. Tushunish jarayonlari. PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir. PIRLS va ePIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin. To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

Hozirda PIRLS testlariga tayyorlashda tanlangan matn "DUSHMAN PIROGI" hikoyasini o'rgatishdagi bir qancha usullarni ko'rib chiqamiz:

O'quvchi hikoyaning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil hikoya zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'qituvchi hikoya ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

- ✚ Hikoya ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
- ✚ Hikoyani tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
- ✚ Har bir hikoyani tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
- ✚ Hikoyani qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlashi.
- ✚ O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyalar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

❖ **Birinchi bosqich**(birinchi sintez). Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida hikoyaning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat.

❖ **Ikkinchi bosqich**(analiz). Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), hikoya kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), hikoyaning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

❖ **Uchinchi bosqich**(ikkinchi sintez). Bu bosqichning ish mazmuni ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, hikoyaning g'oyasini aniqlash, badiiy hikoyani hayotni bilish manbai va san'at hikoyani sifatida baholash(qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, hikoya nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq-ravshan va ta'sirli tarzda yetkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Ikkinchi sintezdan so'ng o'qilgan hikoyaga bog'liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o'tkaziladi.

Hikoya maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faolligi ortadi, chunki hikoyani tahlil qilish ular uchun ijodiy jarayondir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qish savodxonligi darslarida PIRLS test materiallarini sinfdagi darslarga integratsiyalashning samarali strategiyalarini o'rganadi. Bu o'quvchilarning o'qishni tushunish, tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishda PIRLS matnlari va savollarining ahamiyatiga urg'u beradi. O'qituvchi test topshiriqlarini dars maqsadlariga moslashtirish, matnlar bilan chuqurroq shug'ullanishga yordam berishning amaliy usullarini ta'kidlashi mumkin. Maqolada, shuningdek, PIRLS tizimi o'qituvchilarga o'qish savodxonligini baholash va oshirishda qanday yo'l-yo'riq ko'rsatishi haqida so'z boradi. Umuman olganda, u ma'lumotli o'qitish amaliyoti orqali boshlang'ich ta'limda savodxonlik natijalarini yaxshilash uchun xalqaro baholash vositalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=15772](http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=15772)
2. Pirls 2021 assessment framework. Ina v.s. mullis, michael o. Martin. International association for the evaluation of educational achievement (iea), timss & pirls international study center, lynch school of education, boston college. 2019. [Www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu).

3. Hayat, b., & yusuf, s. (2010). Benchmark internasional mutu pendidikan. Bumi aksara.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiya huzuridagi ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
5. Oecd (2023), pisa 2022 results (volume i): the state of learning and equity in education. Oecd publishing.
6. Abdupattayev, g. (2025). Nabijon boqiyning "rohila" qissasida xarakter va konflikt masalasi. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 14, 127–128.
<https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1140>.
7. Xodjaev, s., & abdupattaev, g. (2022). Murod muhammad do'st ijodida davr va qahramon muammosi. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali, 3 (12), 77-81.
8. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., umarjonov, b., & shamsiddinov, m. (2021). Islom moliyasining xususiyatlari. Scientific progress, 2(8), 634-638.
9. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., shamsiddinov, m., & umarjonov, b. (2022). Islamic finance. Scientific progress, 3(2), 48-50.
10. Akhrorjon, a., & oybek, a. (2022). Characteristics of islamic finance. In international scientific conference" topical issues of the economy in modern.
11. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., ubaydullayev, a., omonov, i., & mirzamahmudov, b. (2022). Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 755-761.
12. Akhrorjon, a. (2022). Uzbekistan and the world trade organization management system. In international scientific conference" topical issues of the economy in modern.
13. Akhrorjon, a., & oybek, a. (2022). Danger in islamic banking. In international scientific conference" topical issues of the economy in modern.
14. Abdullaev, a. (2022). O'zbekiston iqtisodiyoti uchun jstga a'zo bo'lish sabab muammo va natijalari. Raqamli texnologiyalar va ta'lim istiqbollari, 1(2), 113-121.
15. Akhrorjon, a., & zumradkhan, k. (2022). The impact and results of membership of the wto on the education system. Educational research in universal sciences, 1(5), 24-32.
16. Akhrorjon, a. (2022). Reasons, problems and consequences for the accession of the uzbek economy to the wto. In international scientific conference" topical issues of the economy in modern.
17. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., karimova, s., & solijonova, f. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress, 3(2), 343-347.
18. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., anvarov, j., & ismoilov, s. (2022). Islom moliyasi. Scientific progress, 3(2), 45-47.
19. Akhmadjonov, o., abdullaev, a., yusupov, s., & anvarov, j. (2021). Islom bankchiligidagi xavf. Scientific progress, 2(8), 639-642.

20. Axadjon o'g'li, a. A., & sabirovna, g. G. (2025). Jstga a'zo bo 'lishning iqtisodiy o'sishga ta'siri. *Zamin ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 1(5), 101-108.
21. Abdullaev, a. (2021). Raqamli iqtisodiyot-kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o 'ziga xos xususiyatlari, uning.
22. Mamadjonov, m., abdullayev, a., abdurahmonov, i., & mamadaliyev, a. (2021). Challenges of management in the digital economy. *Scientific progress*, 2(6), 1533-1537.
23. Aa, m. F. M. (2021). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati. *Âxeopot-kommyhhkaflflx texhomrnmâph bâ teïekommyhhkâ^ mâphhhr 3âmohâbhh myâmmoïîâph bâ ehmmïîâph ohïîâhh pecnyemkâ hïimhh-texhhkâhmymâhmhmhrmârbpy3âïîâp tmflâmh*, 2(6), 794.
24. Akhmadjonov, o., abdullayev, a., abdupattayev, a., & sultonov, m. (2021). Islamic banking management, assets and libilities. *Scientific progress*, 2(6), 1525-1532.
25. Axrorjon, a., & maxliyoxon, o. (2024). Ta'lim sifati oshishida jstning o 'rni. *Yangi o 'zbekistonda ijtimoiy-innovatsion tadqiqotlar*, 2(1), 113-118.
26. Mulaydinov, f. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
27. Jumanova, s. (2024). Analysis of pisa test results in uzbekistan and prospects of preparing primary education students for pisa test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
28. Akhrorjon, a., & maxliyoxon, o. (2024). Impact, results and consequences of wto accession on the education system. *International multidisciplinary journal of universal scientific prospectives*, 2(1), 6-15.
29. Ikromjonovna, j. S., & axadjon o'g'li, a. A. (2023). O 'zbekistonda pisa testi natijalari va boshlang 'ich ta'lim o 'quvchilarini bu testga tayyorlash istiqbollari. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 9, 159-162.
30. Abdullaev, a., & odilova, m. (2024). The role of wto in improving the quality of education. *Yosh tadqiqotchi jurnali*, 3(1), 140-148.